# Avval xabar berganimizdek, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi va boshqa bir qator tashkilotlar hamkorligida mamlakatimiz bo‘ylab 30-iyun  - “Yoshlar kuni” munosabati bilan “Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik!”  shiori ostida “Yoshlar oyligi” o‘tkazilmoqda.

Avval xabar berganimizdek, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi va boshqa bir qator tashkilotlar hamkorligida mamlakatimiz bo‘ylab 30-iyun  - “Yoshlar kuni” munosabati bilan “Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik!”  shiori ostida “Yoshlar oyligi” o‘tkazilmoqda.

Bugun oylik doirasida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot  loyihalarni o'tkazish uchun olimlar, ziyolilar, shoir va yozuvchilar,  san'atkorlar "Ma'rifat" targ'ibotchilari jamiyati a'zolari Termiz shahriga yetib kelishdi.

Yoshlar oyligi doirasida Surxondaryo viloyatida “Mening farzandim – O‘zbekiston faxri”, “Ma‘rifat tur”, “Milliy qadriyatlar haftaligi”, “Inson qadri va mehr-saxovat”, “Kitob karvoni”, “Ma‘rifat soati” kabi ma'naviy-ma’rifiy loyihalar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.









